



EKOLOGIK RISKLARNI BOSHQARISHDA EKOLOGIK SUG'URTALASHNING O'RNI: XALQARO STANDARTLAR VA MILLIY IMKONIYATLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19411007>

Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoiy odil sudlov fakulteti 2-kurs talabasi
Muhammadiyahva Ruhshona Muzaffar qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ekologik risklarni boshqarishda ekologik sug'urtalashning o'rni, xalqaro standartlar va O'zbekiston Respublikasidagi milliy imkoniyatlar keng tahlil qilingan. Tadqiqotda jahon miqyosidagi statistik ma'lumotlar, xususan, Swiss Re Institute hisobotlari, Barqaror sug'urtalash tamoyillari (PSI), Yevropa Ittifoqining Atrof-muhit javobgarligi yo'riqnomasi, shuningdek O'zbekiston sug'urta bozorining hozirgi holati tahlil qilingan. Maqolada huquqshunos Xolmo'minov J.T. va Narzullayev O.X. larning darsliklari ekologik sug'urtalashning huquqiy asoslarini ochib berish uchun foydalanilgan. Maqolada jahon va O'zbekiston tajribasi solishtirilgan, milliy imkoniyatlarni rivojlantirish uchun ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *ekologik sug'urtalash, ekologik risklar, xalqaro standartlar, atrof-muhit javobgarligi, sug'urta bozori, O'zbekiston, iqlim o'zgarishi risklari, ekologik iqtisodiy mexanizm.*

1. KIRISH

XXI asrda ekologik muammolar va tabiiy ofatlardan kelib chiqadigan iqtisodiy zararlar global miqyosda keskin oshib bormoqda. Swiss Re Institute ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilda tabiiy ofatlardan kelib chiqqan umumiy iqtisodiy zararlar 280 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan, ulardan atigi 108 mlrd dollari (38%) sug'urtalangan.⁶⁸ 2024 yilda bu ko'rsatkich yanada oshib,

iqtisodiy zararlar 318 mlrd dollarga yetgan, ammo sug'urtalanganlik ulushi 43% (137 mlrd dollar) darajasida qolgan.⁶⁹ Bu raqamlar rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ayniqsa keskin muammoni ko'rsatadi: ekologik va tabiiy risklar tobora ortib bormoqda, biroq sug'urta himoyasi sezilarli darajada yetishmayapti.

Ekologik sug'urtalash masalasi bugungi kunda huquq va iqtisodiyotning tutashgan sohasida muhim o'rin egallaydi. O'zbekiston huquqshunosligida

⁶⁸ Swiss Re Institute. Sigma 1/2024: Natural catastrophes in 2023: gearing up for today's and tomorrow's weather risks. – Zürich: Swiss Re Ltd, 2024. – P. 5. URL:

<https://www.swissre.com/institute/research/sigma-research/sigma-2024-01.html>



ekologik sug'urta tushunchasi mustaqil ilmiy va amaliy kategoriya sifatida ko'rib chiqilmoqda. Xolmo'minov J.T. ning "Ekologiya huquqi" darsligida ta'kidlanganidek, "atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish iqtisodiy-huquqiy mexanizmining yana bir muhim tarkibiy qismlaridan biri ekologik sug'urta institutidir. Sug'urta — bozor infrastrukturasi muhim unsuri, iqtisodiy va ijtimoiy sohaning ajralmas qismi."⁷⁰ Bu ta'rif ekologik sug'urtaning nafaqat moliyaviy, balki huquqiy-iqtisodiy ahamiyatini ham ochib beradi.

O'zbekiston Respublikasi uchun bu mavzu alohida dolzarflik kasb etadi. Mamlakat dunyodagi eng yirik ekologik falokatlardan biri — Orol dengizi inqirozining markazida joylashgan. Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi (OQXJ) 2011-yilga qadar ikkita dasturni amalga oshirib, ekologik holatni barqarorlashtirish, transchegaraviy suvlarni boshqarishni yaxshilash, iqtisodiy-ijtimoiy muammolar yechimiga yordam berishga yo'naltirilgan loyihalarni bajarib, buning uchun 2 milliard dollardan ortiq mablag' yo'naltirilgan. O'zbekiston oxirgi o'n yil ichida Orolbo'yidagi loyihalarga 1 milliard 200 million AQSh dollaridan ziyod mablag' ajratgan.⁷¹ Bu raqam ekologik zarar moliyaviy ta'minotini o'z

vaqtida tashkil etishning qanchalik muhimligini ko'rsatadi.

Dunyo bo'yicha sug'urtalanganlik darajasi o'rtacha YalMning 6,9% ni tashkil etsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich atigi 0,67% ni tashkil etadi (2024 yil ma'lumotlari).⁷² Bu global o'rtacha ko'rsatkichdan taxminan 13 baravar past bo'lib, mamlakatdagi sug'urta bozorining rivojlanganlik darajasini va ekologik sug'urtalash sohasidagi ulkan bo'shliqni ko'rsatadi. Shu sababli xalqaro standartlarni o'rganish va milliy imkoniyatlarni baholash nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolaning maqsadi ekologik sug'urtalashning nazariy asoslari, xalqaro me'yoriy-huquqiy bazasi va amaliyotini tahlil qilish, O'zbekistondagi hozirgi ahvolni baholash hamda milliy imkoniyatlarni rivojlantirish yo'nalishida ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

2. JAHON VA O'ZBEKISTONDAGI ASOSIY MUAMMOLAR

2.1. Jahon miqyosidagi muammolar

Ekologik sug'urtalash sohasida global miqyosda bir qator jiddiy muammolar mavjud. Birinchi muammo, sug'urtalanmagan zararlarning ulkan hajmi, ya'ni "himoya bo'shlig'i". Swiss Re Institute 2024 yilgi hisobotiga ko'ra, 2024 yilgi tabiiy ofatlardan kelib chiqqan 318 mlrd dollarlik iqtisodiy zararining 181

⁷⁰ Ekologiya huquqi. Darslik / Mas'ul muharrir: Xolmo'minov J.T. – Toshkent: TDYU, 2018. – B. 132.

⁷¹ Xalq so'zi gazetasi. – 2014-yil 30-oktyabr. – №210 (6140). – B. 1–2. Iqtibos: Xolmo'minov J.T. Ekologiya huquqi. Darslik. – Toshkent: TDYU, 2018. – B. 128.

⁷²

<https://inlibrary.uz/index.php/eitt/article/view/91611>



mlrd dollari (57%) sug'urtalanmagan bo'lib qoldi.⁷³ Bu tendensiya rivojlanayotgan mamlakatlarda yanada keskinroq namoyon bo'ladi. Masalan, 2023 yil fevralida yuz bergan Turkiya va Suriya zilzilasida iqtisodiy zarar 58 mlrd dollarni tashkil etgan, biroq sug'urta qoplamalari atigi 6,2 mlrd dollarga (10,7%) teng bo'lgan.⁷⁴

Ikkinchi muammo, iqlim o'zgarishi ta'sirida ekologik risklarning tezlashishi. Inflyatsiyaga muvofiq tuzatilgan ko'rsatkichlarda sug'urtalangan zararlar 1994- 2023 yillar davomida yiliga o'rtacha 5,9% o'sib borgan, bu esa dunyo YaIMining 2,7% yillik o'sishidan ikki barobarga yuqori.

Uchinchi muammo, ekologik risklar narxini aniqlashning qiyinligi. Atrof-muhitga etkazilgan zararining ko'p qismi aniq miqdorlanmaydi (biologik xilmaxillik yo'qolishi, tuproq degradatsiyasi, suv sifatining buzilishi), bu esa sug'urtachi uchun riskni baholash va mukofot narxini belgilashni murakkablashtiradi.

To'rtinchi muammo, ekologik sug'urtalash mahsulotlarining cheklanganligi. UNEP FI (Barqaror moliya tashabbusi) 2023 yilgi tadqiqotida qayd etilganidek, atrof-muhitni ifloslantirish javobgarligi sug'urtasining (Environmental Pollution Liability

Insurance — EPLI) to'la imkoniyatlari hali yetarlicha amalga oshirilmagan.⁶

2.2. O'zbekistondagi muammolar

O'zbekistonda ekologik sug'urtalash sohasidagi muammolar bir necha qatlamni o'z ichiga oladi. Eng asosiy muammo sug'urta bozorining umumiy rivojlanmaganligidir. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonning sug'urta penetratsiyasi 2021 yilda 0,52% ni tashkil etgan bo'lib, bu rivojlayotgan bozorlarning 3,0% o'rtacha ko'rsatkichidan ham ancha past.⁵ Aholi jon boshiga sug'urta mukofoti 2017 yilda atigi 5,68 AQSh dollarini tashkil etgan, rivojlanayotgan mamlakatlarning o'rtacha 135 dollarligi bilan solishtirganda bu ko'rsatkich nihoyatda past.⁷

Ikkinchi muammo, Orol dengizi falokatining davom etayotgan oqibatlarini. Sobiq Sovet Ittifoqi tomonidan paxta yetishtirish uchun suv manbalarini chalg'itish natijasida, jahonning to'rtinchi yirik ko'li bo'lgan Orol dengizi o'zining 90% dan ortiq maydonini yo'qotdi. Shu natijada 40 000—60 000 baliqchi ish o'rnidan mahrum bo'ldi; 100 000 nafar kishi qishloq xo'jaligidagi ish o'rnini yo'qotdi.⁸ Ushbu falokatni O'zbekiston huquqshunosligi ham alohida e'tirof etib o'tgan. Xususan, "Ekologiya huquqi" darsligida Orol dengizi muammosi "hozirgi kundagi global ekologik muammolar" bilan birgalikda ekologiya huquqining dolzarb obyektlari qatorida ko'rsatilgan.³

3. ADABIYOTLAR TAHLILI

3.1. O'zbekiston ilmiy adabiyotlari

⁷³ Swiss Re Institute. Sigma 1/2025: Natural catastrophes: insured losses on trend to USD 145 billion in 2025. – Zürich: Swiss Re Ltd, 2025. – P. 3.

URL:

<https://www.swissre.com/institute/research/sigma-research/sigma-2025-01.html>



O'zbekiston huquqshunosligida ekologik sug'urtalash masalasi ekologiya huquqining iqtisodiy-huquqiy mexanizmi tizimida muhim element sifatida ko'rib chiqiladi. Bu borada ikki asosiy darslik alohida ahamiyat kasb etadi.

Xolmo'minov J.T. muharrirligi ostida TDYU jamoasi tomonidan tayyorlangan "Ekologiya huquqi" darsligida ekologik sug'urtalashning huquqiy-nazariy asoslari to'liq yoritilgan. Ushbu darslikda "atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning iqtisodiy-huquqiy mexanizmi" quyidagi usullardan foydalanishni nazarda tutadi, deb belgilanadi: "... ekologik sug'urtalash va atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishni iqtisodiy rag'batlantirish".⁷⁵ Shu bilan birga, darslikda O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida" gi Qonuniga muvofiq sug'urta ta'rif ham berilgan bo'lib, unga ko'ra sug'urta "yuridik yoki jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan, shuningdek sug'urtalovchining boshqa mablag'laridan shakllantiriladi gan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug'urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash yo'li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish"dir.³

Ekologik sug'urtaning bosh maqsadi haqida Xolmo'minov J.T. jamoasi shunday ta'rif beradi: " Ekologik sug'urtaning bosh maqsadi — atrof tabiiy

muhitni ifloslantirish natijasida yetkaziladigan zararni kompensatsiyalash hamda barcha taraflar manfaatlarini inobatga olgan holda ekologik xavfsizlikni qo'shimcha kafolatlash."⁷⁶ Ushbu ta'rif ekologik sug'urtaning ikki muhim funksiyasini ko'rsatadi: 1) kompensatsiya; 2) profilaktika (ekologik xavfsizlikni ta'minlash).

Darslikda ekologik sug'urtaning ob'ekti ham aniq ko'rsatilgan: « Ekologik sug'urtaning obyekt — fuqaroviy javobgarlik tavakkalchiligi bo'lib, yuridik va jismoniy shaxslarning fuqarolik qonunchiligiga muvofiq aniq sug'urta shartnomasi hududida sodir bo'lgan atrof tabiiy muhit (yer, suv va havo) ifloslanishi natijasida yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha sug'urtalovchiga mulkiy da'vo qo'zg'atishda ifodalanadi".¹¹ Bu ta'rif atrof-muhitning uchta asosiy tarkibiy qismi yer, suv va havoni ekologik sug'urta obyekt sifatida belgilashi bilan muhimdir.

Xolmo'minov J.T. jamoasi yozgan darslikda sug'urtaning iqtisodiy rag'batlantirish tizimidagi o'rni ham batafsil ko'rsatilgan. Ularning ta'kidlashicha, tabiatni muhofaza qilish jamg'armalari mablag'larining bir qismini « ifloslantiruvchi moddalar chiqarish va oqizishni kamaytirish chora-tadbirlarini ro'yobga chiqarish maqsadida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va ayrim shaxslarga foizli qarzlarni sifatida shartnoma asosida berish" mumkin.¹²

⁷⁵ Ekologiya huquqi. Darslik / Mas'ul muharrir: Xolmo'minov J.T. – Toshkent: TDYU, 2018. – B. 122-b.

⁷⁶ Ekologiya huquqi. Darslik / Mas'ul muharrir: Xolmo'minov J.T. – Toshkent: TDYU, 2018. – 133–134-b.



Narzullayev O.X. tomonidan mualliflar jamoasi bilan birgalikda yaratilgan “Ekologiya huquqi” darsligida ushbu mavzu milliy qonunchilik kontekstida keng yoritilgan. Mazkur darslikda ekologik sug’urtalash “iqtisodiy-huquqiy mexanizmning yana bir muhim tarkibiy qismlaridan biri” sifatida ta’riflanadi.¹³ Darslikda GFR (Germaniya) tajribasi haqida qimmatli ma’lumot ham keltirilgan: “ Germaniya Federativ Respublikasida hozirda ekologik masalalar (shu jumladan, ekologik sug’urta) ni tartibga soluvchi 800 qonun, 2770 nizom va ko’rsatma hamda 4690 ta yo’riqnoma amal qilmoqda.”⁷⁷ Bu raqamlar rivojlangan mamlakatlardagi ekologik sug’urta tartibga soluvning murakkabligini ko’rsatadi.

Narzullayev O.X. darsligida atrof-muhitni muhofaza qilishni moliyalashtirish manbalari qatorida “ekologik sug’urta jamg’armalari» alohida manba sifatida ko’rsatilgan: “ Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishni moliyalashtirish — bu tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash chora-tadbirlari hamda dasturlarini ... ekologik sug’urta jamg’armalari, bank kreditlari ... hisobidan pul yoki moddiy texnika resurslari bilan ta’minlanishidir.»⁷⁸

3.2. Xalqaro ilmiy adabiyotlar

Ekologik sug’urtalash sohasidagi ilmiy adabiyotlarni chuqur bibliometrik tahlil qilgan Yilmaz va Kandır (2022) 1986—2020 yillar oralig’ida Scopus ma’lumotlar bazasida ro’yxatga olingan 97 ta ilmiy maqolani o’rganib chiqqan. Ularning International Journal of Climate Change Strategies and Management jurnalida chop etilgan tadqiqotida qayd etilishicha, iqlim o’zgarishi, ekologik risklar va sug’urta o’rtasidagi bog’liqlik ilmiy jihatdan kechroq e’tibor qozongan bo’lib, 2010-yillardan boshlab maqolalar soni keskin ortgan; asosiy mavzular sifatida toshqin riski, qishloq xo’jaligi sug’urtasi va javobgarlik sug’urtasi ajratib ko’rsatilgan.⁷⁹

Dorota Masniak (Gdansk universiteti, Polsha) muharrirligi ostida chop etilgan « Managing Environmental Risks through Insurance: Legal and Economic Aspects» (Springer, 2023) kitobda ta’kidlanishicha, ekologik sug’urtalash faqat moliyaviy kompensatsiya mexanizmi bo’libgina qolmay, balki korxonalarni ekologik jihatdan mas’uliyatli xatti-harakat qilishga undovchi iqtisodiy vositadir.⁸⁰

Frontiers in Environmental Science jurnalida chop etilgan Xia va boshqalar (2023) tadqiqotida atrof-muhitni

⁷⁹ Yilmaz M., Kandır S.Y. Insurance for climate change and environmental risk: a bibliometric review // International Journal of Climate Change Strategies and Management. – 2022. – Vol. 14. – No. 5. – P. 440–460. <https://doi.org/10.1108/IJCCSM-06-2022-0073>.

⁸⁰ Masniak D. (Ed.) Managing Environmental Risks through Insurance: Legal and Economic Aspects. – Cham: Springer Nature, 2023. ISBN 978-3-031-47602-0. <https://doi.org/10.1007/978-3-031-47602-0>.

⁷⁸ Ekologiya huquqi. Darslik / Ilmiy muharrir: Narzullayev O.X. va boshqalar. – Toshkent: TDYU, 2017. – B. 126.



ifloslantirish javobgarligi sug'urtasini (EPLI) sotib olish korxonalarining yashil innovatsiyasini sezilarli darajada yaxshilashi ko'rsatib berildi. Tadqiqotchilar bu ijobiy ta'sirning ikki asosiy mexanizm orqali amalga oshishini aniqladilar: moliyalashtirishdagi cheklovlarni yumshatish va agentlik xarajatlarini kamaytirish.⁸¹

Yevropa Aktuarlar Assotsiatsiyasi (AAE) ning 2022 yilgi muhokama qog'ozida ekologik javobgarlik Direktivi (ELD) va sug'urta munosabatlari batafsil ko'rib chiqilgan. Hujjatda qayd etilishicha, « ifloslashtiruvchi to'laydi» tamoyilini amalga oshirishdagi asosiy muammolardan biri — javobgar tomon zarar aniqlanganda allaqachon mavjud bo'lmasligi ehtimoliyigidir.⁸²

Xu va boshqalar (2024) Xitoyda tijorat ro'yxatiga kiritilgan korxonalar misolida ekologik javobgarlik sug'urtasining yashil innovatsiyaga ta'sirini o'rganib, davlat mulkiga tegishli bo'lmagan korxonalarda va yuqori axborot shaffofligi mavjud bo'lgan joylarda bu ijobiy ta'sir ayniqsa kuchli ekanligi aniqlanganini ta'kidladilar.⁸³

⁸¹ Xia X. et al. Environmental pollution liability insurance and green innovation of enterprises: Incentive tools or self-interest means? // *Frontiers in Environmental Science*. – 2023. – Vol. 11. URL: <https://www.frontiersin.org/journals/environmental-science/articles/10.3389/fenvs.2023.1077128/full>

⁸³ Xu L. et al. Green innovation of heavily polluting enterprises under environmental liability insurance // *Technological Forecasting and Social Change*. – 2024. URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0040162524003287>

4. EKOLOGIK SUG'URTALASHNING XALQARO STANDARTLARI

4.1. Yevropa Ittifoqining atrof-muhit javobgarligi direktivi (ELD)

Yevropa Ittifoqida ekologik javobgarlikni tartibga solishning puxta tizimi shakllangan. ELD 2004/35/EC direktivi uning asosi bo'lib, uchta asosiy toifa bo'yicha atrof-muhitga etkazilgan zararni tartibga soladi: suv resurslariga zarar, yer resurslariga zarar, himoyalangan tur va tabiiy yashash muhitlariga zarar. Direktiv muqaddimasida belgilanganidek: “Ushbu direktivning asosiy tamoyili shuki, faoliyati atrof-muhit zarariga yoki shunday xavf-xatarga sabab bo'lgan operator moliyaviy jihatdan javobgar bo'lishi kerak, bu operatorlarni atrof-muhit zararini minimallashtirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar qabul qilishga va amaliyotlar ishlab chiqishga undaydi”.⁸⁴

“Ifloslashtiruvchi to'laydi” tamoyili nafaqat YI huquqida, balki O'zbekiston ekologiya huquqida ham tan olingan. Narzullayev O.X. va boshqalar tomonidan tayyorlangan “Ekologiya huquqi” darsligida bu tamoyil ekologik to'lovlar tizimi doirasida muhokama qilinib, “tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun haq to'lash davlat va mahalliy byudjetni to'ldirish manbasi

⁸⁴ Directive 2004/35/EC of the European Parliament and of the Council of 21 April 2004 on environmental liability. // *Official Journal of the European Union*. – L 143. – 30.04.2004. – P. 56–75. URL: <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/HTML/?uri=CELEX:32004L0035>



bo'lib xizmat qiladi" va "foydalanuvchilarni o'zlari foydalanganliklari uchun haq to'laydigan tabiiy resurslardan oqilona foydalanishlarini rag'batlantirish" maqsadlari belgilangan.¹⁴

ELD ning Yevropa tajribasida kuzatilgan muhim xususiyati shundaki, direktiv moliyaviy ta'minot majburiyatini bevosita o'rnatmagan (14-modda tavsiya xarakteriga ega), buning o'rniga bozor kuchlarining o'zi mos moliyaviy ta'minot vositalarini ishlab chiqishini rag'batlantirishni nazarda tutadi. Biroq AAE (2022) tahlilida ta'kidlanganidek, bu yondashuv amalda o'z cheklanganliklari bilan birga keladi: ayniqsa kichik va o'rta biznes uchun ixtisoslashgan ekologik sug'urta mahsulotlari ko'pincha qimmat yoki mavjud emas.¹⁸

4.2. UNEP PSI — Barqaror Sug'urtalash Tamoyillari

UNEP Moliya tashabbusi tomonidan 2012 yilda Rio-de-Janeyro shahrida BMT Barqaror rivojlanish konferentsiyasida taqdim etilgan Barqaror sug'urtalash tamoyillari (Principles for Sustainable Insurance — PSI) — BMT va global sug'urta sanoati o'rtasidagi eng yirik hamkorlik tashabbusidir: dunyo bo'yicha 300 ga yaqin a'zo tashkilotni birlashtiradi; a'zo sug'urta kompaniyalari jahon sug'urta mukofotlari hajmining 25% dan ortig'ini va 14 trillion dollarlik aktivlarni boshqaradi.⁸⁵ PSI to'rtta asosiy

tamoyilni o'z ichiga oladi: ESG masalalarini qarorlar qabul qilishga tatbiq etish; mijozlar, hamkorlar va vositachilar bilan ishlashda ESG masalalarini hisobga olish; hukumatlar, tartibga soluvchilar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan muloqot; PSI ning amalga oshirilishini nazorat qilish va jamoatchilikka hisobdorlik.

Xolmo'minov J.T. jamoasining darsligida ham ekologik sug'urtaning iqtisodiy mexanizm tizimidagi ahamiyati ta'kidlanib, u "tabiatdan foydalanish, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash sohasida iqtisodiy-huquqiy chora-tadbirlar tizimining yetarli darajada shakllanmaganligi" bilan bog'liq muammolar ham ochib berilgan.¹⁰ Bu tahlil PSI tamoyillarini O'zbekiston sharoitida tatbiq etishning zarurligini yanada tasdiqlaydi.

4.3. Xitoy tajribasi: majburiy EPLI modeli

Xitoy ekologik sug'urtalash sohasida qisqa vaqt ichida katta yo'l bosib o'tdi. 2013 yilda Ekologiya va atrof muhit vazirligi hamda Bank va sug'urtani tartibga solish komissiyasi "Majburiy ekologik ifloslanish javobgarligi sug'urtasini bosqichma-bosqich joriy etish to'g'risida ko'rsatma"ni chiqardi. 2016 yilda esa yetti vazirlik birgalikda "Yashil moliya tizimini shakllantirishga doir ko'rsatma" ni ishlab chiqdi, unda ekologik sug'urta tizimini faol rivojlantirish talab qilindi.¹⁷

Xitoy tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ekologik sug'urtalash

⁸⁵ UNEP Finance Initiative. Principles for Sustainable Insurance. – Geneva: UNEP FI, 2012. URL: <https://www.unepfi.org/psi/wp-content/uploads/2012/06/PSI-document.pdf>



majburiylik sanoat korxonalarini nafaqat riskni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rishga undaydi, balki ularning yashil innovatsiya faoliyatini ham rag'batlantiradi. PMC da chop etilgan tadqiqotda ta'kidlanganidek, Xitoy tajribasining eng muhim xususiyati EPLI ni kompaniyalar nazorat vositalari, jumladan ekologik ma'lumotlarni oshkor qilish va atrof-muhit menejment sertifikatini bilan birgalikda qo'llash bo'lib, bu kompleks yondashuv yaxshi natijalarga erishishga imkon beradi.⁸⁶

5. O'ZBEKISTONDAGI MILLIY IMKONIYATLAR VA TAVSIYALAR

5.1. Milliy huquqiy bazaning tahlili

O'zbekiston Respublikasining ekologiya huquqi sohasidagi qonunchilik bazasi yetarli darajada rivojlangan. Amaldagi qonunchilikda tabiatni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi moliyaviy mexanizmlar ham o'z aksini topgan. Narzullayev O.X. darsligida qayd etilganidek, moliyalashtirish manbalari qatoriga: davlat byudjeti, vazirliklar va idoralar mablag'lari, korxonalar, tashkilot va muassasalar mablag'lari, ekologik jamg'armalar mablag'lari, bank krediti, jismoniy va yuridik shaxslarning, shuningdek, chet el yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari,

shuningdek ekologik sug'urta jamg'armalari kiradi.¹⁴

O'zbekiston huquqiy tizimida ekologik sug'urtalash doirasida rag'batlantirish shakllari ham belgilangan. Xolmo'minov J.T. jamoasining ta'kidlashicha, korxonalar ekologik chora-tadbirlarni amalga oshirishi uchun quyidagi rag'batlar qo'llanishi mumkin: "kamchiqitli texnologiya va ishlab chiqarishni joriy etgan, hosila resurslardan foydalanadigan yoki tabiatni muhofaza qilish samaradorligini ta'minlovchi faoliyat bilan shug'ullanuvchi davlat yoki boshqa korxonalar, muassasa, tashkilotga nisbatan soliq va boshqa imtiyozlarni belgilash; ekologik jamg'armalarni soliqlar tortishdan ozod etish".¹²

Biroq amaldagi milliy qonunchilikda ekologik sug'urtalashning majburiy turi hali to'liq shakllanmagan. Iqtisodiy mexanizmning samarali ishlashi uchun Narzullayev O.X. darsligida ta'kidlanganidek, "tabiatdan foydalanish, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash sohasida iqtisodiy-huquqiy chora-tadbirlar tizimining yetarli darajada shakllanmaganligi, o'z navbatida ekologik-huquqiy mexanizmning tarkibiy qismlari hisoblangan boshqaruv, nazorat, yuridik javobgarlik hamda ekologik-huquqiy madaniyat kabi institutlarning zaiflashuviga" olib kelishi mumkin.¹³

5.2. Xalqaro hamkorlik imkoniyatlari

Xolmo'minov J.T. va Narzullayev O.X. darsliklarida xalqaro ekologiya

⁸⁶ Li Z. et al. Environmental Pollution Liability Insurance and Corporate Performance: Evidence from China // International Journal of Environmental Research and Public Health. – 2022. – Vol. 19. – No. 20. URL:

<https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC9564652/>



huquqining O'zbekiston uchun ahamiyati ham yoritilgan. Ushbu darsliklarning 20-bobida xalqaro ekologiya huquqining asosiy tamoyillari tahlil qilingan bo'lib, ulardan biri "xalqaro miqyosda ekologik axborotni erkin almashinish tamoyili" dir.⁸⁷ Ushbu tamoyil ekologik risklar bo'yicha ma'lumot almashish va xalqaro sug'urta standartlarini joriy etish uchun ham muhim asosdir.

UNDP O'zbekiston bo'yicha 2024 yilda o'tkazilgan iqlim va ofat risklarini moliyalashtirish bo'yicha trening hisobotida qayd etilishicha, O'zbekiston sug'urta bozori ishtirokchilari uchun iqlim o'zgarishi bilan bog'liq risklarni moliyalashtirish ko'nikmalarini mustahkamlash dolzarb ehtiyoj bo'lib qolmoqda. Xususan, Aktuarlar Assotsiatsiyasi direktori B. Shamsutdinov ta'kidlaganidek: "Sug'urta — tabiiy risklar boshqaruv tizimini ham o'z ichiga olgan risklar boshqaruv tizimining asosiy usuli".⁸⁸

5.3. Tavsiyalar

Tadqiqot natijalari asosida O'zbekistonda ekologik sug'urtalashni rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Birinchi tavsiya: Huquqiy baza islohoti. O'zbekiston Respublikasining

"Sug'urta faoliyati to'g'risida" gi qonuniga ekologik sug'urtalashga oid alohida normalarni qo'shish, xususan, ekologik yuqori xavfli sanoat korxonalari (tog'-kon sanoati, kimyo, neftni qayta ishlash, metallurgiya) uchun majburiy ekologik javobgarlik sug'urtasini joriy etish zarur. Xitoy va YI tajribasi shuni ko'rsatadiki, majburiy ekologik sug'urta tadbirkorlarni profilaktik chora-tadbirlarni ko'rishga undaydi va yashil innovatsiyani rag'batlantiradi.¹⁷

Ikkinchi tavsiya: Orol dengizi hududlari uchun moslashtirilgan sug'urta mahsulotlari. Qoraqalpog'iston va qo'shni hududlarda iqlim o'zgarishi bilan bog'liq ekologik risklar — qurg'oqchilik, tuz bo'ronlari, tuproq degradatsiyasi — uchun maxsus indeks asosidagi sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi. Bu sohada Narzullayev O.X. darsligida Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasining tajribasi va suverni risklarga nisbatan iqtisodiy mexanizmlar muhokama qilingan bo'lib, ular zamonaviy sug'urta mexanizmlari bilan uyg'unlashtirilishi mumkin.¹⁴

Uchinchi tavsiya: PSI tamoyillarini amalga tatbiq etish. O'zbekiston sug'urta kompaniyalari UNEP FI Barqaror Sug'urtalash Tamoyillariga qo'shilishga rag'batlantirilishi kerak. Xolmo'minov J.T. darsligida ekologik sug'urtalash va boshqa iqtisodiy vositalarning birgalikda qo'llanishi lozimligi ta'kidlangan.¹²

To'rtinchi tavsiya: Seysmik riskni sug'urtalash mexanizmlarini kuchaytirish. Toshkent va Toshkent viloyatidagi zilzila riskini sug'urtalash tizimini

⁸⁷ Ekologiya huquqi. Darslik / Ilmiy muharrir: Narzullayev O.X. va boshqalar. – Toshkent: TDYU, 2017. – B. 332.

⁸⁸ UNDP Uzbekistan. Participants of the Insurance Market of Uzbekistan learn more about Climate and Disaster Risk Finance. – Tashkent: UNDP, April 2024. URL: <https://www.undp.org/uzbekistan/news/participants-insurance-market-uzbekistan-learn-more-about-climate-and-disaster-risk-finance>



mustahkamlash uchun qayta sug'urtalash shartnomalari kengaytirilib, katastrofik risk bo'yicha milliy fond tashkil etilishi tavsiya etiladi.

Beshinchi tavsiya: Ekologik sug'urtalash bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish. O'zbekistonda ekologiya huquqi va sug'urta sohasida milliy darsliklar va ilmiy maqolalar bazasi yaratilgan Narzullayev O.X., Xolmo'minov J.T. va boshqalar asarlariga asoslanib, ammo ekologik sug'urtalash bo'yicha alohida monografiya yoki dissertatsiya ishlab chiqish muammosi hali dolzarb bo'lib qolmoqda.

6. XULOSA

Ushbu maqolada ekologik risklarni boshqarishda ekologik sug'urtalashning o'rni xalqaro standartlar va milliy imkoniyatlar nuqtai nazaridan keng tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatadi:

Birinchi, global miqyosda ekologik va tabiiy risklardan kelib chiqadigan iqtisodiy zararlar yiliga 5—7% o'sib bormoqda, sug'urtalanmagan "himoya bo'shlig'i" esa 2024 yilda 181 mlrd dollarni tashkil etdi. Bu tendentsiya, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun, moliyaviy barqarorlik va daromadlarni yo'qotish xavfini anglatadi.

Ikkinchi, O'zbekiston huquqshunosligida ekologik sug'urtalashning huquqiy-iqtisodiy asoslari darslik miqyosida shakllangan. Xolmo'minov J.T. (2018) va Narzullayev O.X. (2017) darsliklarida ekologik

sug'urtalash milliy qonunchilik kontekstida batafsil yoritilgan bo'lsa-da, amaliy tatbiq bo'sh qolmoqda.

Uchinchi, xalqaro sug'urtalash standartlari YI ELD 2004/35/EC Direktivi, UNEP FI PSI, EIOPA ko'rsatmalari ekologik sug'urtalashning mustahkam me'yoriy asosini tashkil etadi. "Ifloslashtiruvchi to'laydi" tamoyili sanoat korxonalarining ekologik mas'uliyatini oshirishda samarali qurol bo'lib kelmoqda.

To'rtinchi, Xitoy va Yevropa tajribasi ekologik javobgarlik sug'urtasining majburiyligi korxonalarining yashil innovatsiya faoliyatini rag'batlantirishi, moliyalashtirish cheklolarini yumshatishi va atrof-muhit ma'lumotlarini oshkor qilish madaniyatini shakllantirishi mumkinligini isbotladi.

Beshinchi, O'zbekiston uchun ekologik sug'urtalashni rivojlantirish ham zarurat, ham real imkoniyat hisoblanadi. Mamlakat Orol dengizi falokatining to'g'ridan-to'g'ri qurboni bo'lishi, seysmik xavf zonasida joylashishi, sug'urta penetratsiyasi past bo'lishi — bular ekologik sug'urtani tizimli ravishda joriy etishning favqulodda muhimligini ko'rsatadi. UNDP, Jahon banki va xalqaro hamjamiyatning ko'magi asosida, milliy sug'urta bozorini rivojlantirish dasturlari doirasida bu vazifani hal etish real imkoniyat mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:



1. Xolmo'minov J.T. Ekologiya huquqi. Darslik (mualliflar jamoasi: Bozorov U.B., Jurayev Y.O., Usmonov M.B., Piyilyev Sh.X., Skrinikov N.K., Mirzaabdullayeva M.R., Narzullayev O.X. va boshqalar). – Toshkent: TDYU, 2018. – 366 b.
2. Ekologiya huquqi. Darslik / Ilmiy muharrir: Narzullayev O.X. va mualliflar jamoasi. – Toshkent: TDYU, 2017. – 363 b.
3. O'zbekiston Respublikasining « Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonuni. Lex.uz sayti – Toshkent: 1993. 36-modda.
4. O'zbekiston Respublikasining « Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalarining Axborotnomasi. – Toshkent: 2002.
5. Directive 2004/35/EC of the European Parliament and of the Council of 21 April 2004 on environmental liability with regard to the prevention and remedying of environmental damage // Official Journal of the European Union. – L 143. – 30.04.2004. – P. 56–75. URL: <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/HTML/?uri=CELEX:32004L0035>
6. UNEP Finance Initiative. Principles for Sustainable Insurance. – Geneva: UNEP FI, 2012. URL: <https://www.unepfi.org/psi/wp-content/uploads/2012/06/PSI-document.pdf>
7. Swiss Re Institute. Sigma 1/2024: Natural catastrophes in 2023: gearing up for today's and tomorrow's weather risks. – Zürich: Swiss Re Ltd, 2024. – P. 5. URL: <https://www.swissre.com/institute/research/sigma-research/sigma-2024-01.html>
8. Swiss Re Institute. Sigma 1/2025: Natural catastrophes: insured losses on trend to USD 145 billion in 2025. – Zürich: Swiss Re Ltd, 2025. – P. 3. URL: <https://www.swissre.com/institute/research/sigma-research/sigma-2025-01.html>
9. World Bank. Uzbekistan Financial Sector Reform Project (PAD4468). – Washington D.C.: World Bank, 2022. – P. 14. URL: <https://documents1.worldbank.org/curated/en/341821651843155856/pdf/Uzbekistan-Financial-Sector-Reform-Project.pdf>
10. World Bank. Disaster Property Insurance in Uzbekistan: Overview and Recommendations. – Washington D.C.: World Bank, 2020. URL: <https://documents1.worldbank.org/curated/en/617231591599422910/txt>
11. UNEP Finance Initiative (UNEP FI). New risks, new opportunities: Harnessing environmental pollution liability insurance for a sustainable economy. – Geneva: UNEP FI, December 2023. URL: <https://www.unepfi.org/industries/insurance/new-risks-new-opportunities-harnessing-environmental-pollution-liability-insurance-for-a-sustainable-economy/>
12. Actuarial Association of Europe (AAE). Environmental Liability Directive: Discussion Paper. – Brussels: AAE, September 2022. – 38 p. URL: <https://actuary.eu/wp-content/uploads/2022/09/ELD.pdf>



13. EIOPA. Staff Paper on Nature-Related Risks and Impacts for Insurance. – Frankfurt: EIOPA, March 2023. URL: <https://www.eiopa.europa.eu/system/files/2023-03/EIOPA%20Staff%20paper%20-%20Nature-related%20risks%20and%20impacts%20for%20insurance.pdf>
14. Yilmaz M., Kandir S.Y. Insurance for climate change and environmental risk: a bibliometric review // International Journal of Climate Change Strategies and Management. – 2022. – Vol. 14. – No. 5. – P. 440–460. <https://doi.org/10.1108/IJCCSM-06-2022-0073>.
15. Masniak D. (Ed.) Managing Environmental Risks through Insurance: Legal and Economic Aspects. – Cham: Springer Nature, 2023. ISBN 978-3-031-47602-0. <https://doi.org/10.1007/978-3-031-47602-0>.
16. Xu L. et al. Green innovation of heavily polluting enterprises under environmental liability insurance: Evidence from Chinese listed companies // Technological Forecasting and Social Change. – 2024. URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0040162524003287>
17. Li Z. et al. Environmental Pollution Liability Insurance and Corporate Performance: Evidence from China in the Perspective of Green Development // International Journal of Environmental Research and Public Health. – 2022. – Vol. 19. – No. 20. URL: <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC9564652/>
18. Anchita A.T. et al. Health Impact of Drying Aral Sea: One Health and Socio-Economical Approach // Water. – 2021. – Vol. 13. – No. 22. – P. 3196. <https://doi.org/10.3390/w13223196>.
19. Xalq so'zi gazetasi. – 2014-yil 30-oktyabr. – №210 (6140). – B. 1–2.